**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

MURZAMBETOVA MEXRIBAN BEGDULLAEVNA

YUQORI TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN TO'G'RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.95

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

MURZAMBETOVA MEXRIBAN BEGDULLAEVNA

YUQORI TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO’YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.PhD/FM 912 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V. I. Romanovskiy nomidagi matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingiliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Baltayeva Umida Ismoilovna fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «19» dekabr soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (172-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «5» dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «5» dekabr dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U. A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., pro fessor

J. K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida vujudga keladigan muammolarni yechimlari yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy qo‘llanilishiga ega bo‘lgan matematika, fizika, geologiya, biologiya fanlariga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, amaliy matematikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan «differensial tenglamalar» va «matematik fizika tenglamalari» fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda kasr tartibli hosilalari bilan berilgan differensial tenglamalar nazariyasi, birinchi navbatda, fan va texnologiyaning uzoq ko‘rinadigan ko‘plab sohalarida qo‘llanilishi tufayli katta mashhurlikka erishdi. Ushbu ilmiy tadqiqotning maqsadi parabolik va giperbolik tenglamalar uchun chegaraviy va teskari masalalarni yechishdan iborat bo‘lib, bu yerda tenglamaning elliptik qismi N o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy differensial operatordir.

Xususiy hosilali yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechishni o‘rganish bilan bir qatorda tenglamaning koeffitsiyentlarini, uning o‘ng tomonini va kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlashga oid teskari masalalarni yechishni o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Teskari masalalarni o‘rganish bizga yuqori tartibli tenglama bilan berilgan jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini beradi. Masalan, issiqlik tarqalish jarayonlarini olsak, chegaraviy funksiyani bilishimiz bizga issiqlik tarqalishini chegaradan boshqarish imkoniyatini beradi. Bunga o‘xshash ko‘plab misollar keltirish mumkin. Biz agar vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamani qarasak, agar kasr tartibli hosilaning tartibi 1 va 2 oralig‘ida bo‘lsa, bir vaqtda diffuziya va to‘lqin tarqalish jarayonlarini aks ettiradi, agar 0 va 1 oralig‘ida bo‘lsa, sekin sodir bo‘luvchi diffuziya jarayonlarini ifodalaydi. Masalan, tabiatda juda ko‘plab uchraydigan virus tarqalish jarayonlarini olish mumkin. Shuning uchun ham kasr tartibli tenglamalarni o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy qo‘llanilishiga ega bo‘lgan matematika, fizika va optimal boshqaruv yo‘nalishlariga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, kasr tartibli xususiy hosilalali tenglamalarini va yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni o‘rganishga alohida ahamiyat berildi. Chunki, bu nazariya mexanika, elektronika, boshqaruv nazariyasi, fiziologiya va biologiyadagi ko‘plab hodisalarning xatti-harakatlarini tushunishga yordam beradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematika fanining asosiy vazifasi va faoliyat yo‘nalishi etib belgilandi[1].

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va ob’yekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini

---

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to’g’risida»gi №292- sonli qarori.

yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning klassik yechimlarining mavjud va yagonaligini taniqli matematiklar V.A.Il’in., O.A.Ladyjenskaya., P.E.Sobolevskiy., M.A.Krasnosel’skiy va boshqalarning ishlarida ko‘rish mumkin. Il’inning 1960 yilda nashr etilgan fundamental asarida ushbu yo'nalishdagi ishlarga izoh berilgan va muallifning so‘nggi natijalari keltirilgan. Bu yerda elliptik qismi toikkinchi tartibli simmetrik differensial ifoda bo‘lgan tenglamalarga Furye usuli qo‘llaniladi. Elliptik qism ikkidan yuqoriroq tartibga ega bo‘lgan holda Krasnoselskiyning taniqli monografiyasida o‘rganilgan.

Shuning bilan birga hozirgi vaqtda aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar differensial tenglamalar nazariyasining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda olingan natijalarga misol sifatida Sh.O.Alimov, R.R.Ashurov, S.R.Umarov, B.J.Kadirkulov, E.T.Karimov, R.T.Zunnunov va hokazolarning ishlarini keltirish mumkin.

So‘nggi o‘n yillikda kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar o‘zining fan va texnikaning ko‘p sohalaridagi tadbiqi tufayli katta ahamiyatga ega. Kasr tartibli xususiy hosilali aralash tipdagi to‘g‘ri va teskari masalalar kam o‘rganilgan. Kasr tartibli hosilaga ega tenglamalarni o‘rganganda har doim ham uning tartibi ma’lum bo‘lavermaydi va uni o‘lchash uchun asboblar yo‘q. Shuning uchun olimlar kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarni chuqur o‘rganishmoqda. Alimov Sh.A, Ashurov R.R, Fayziev Yu.E, Umarov Slar subdiffuziya yoki issiqlik tarqalish tenglamalari uchun tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarni o‘rgangan. Lekin aralash tipga tegishli bo’lgan tenglama uchun hosilaning tartibini aniqlash masalasi faqat gina Ashurov R.R va Zunnunov R.T larning ishida sohaning yuqori qismi va quyi qismida ham kasr tartibli hosilaning tartibi noma’lum bo‘lgan holda o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-

tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi OʻzR FA Matematika instituti «Differensial tenglamalar va uning tadbiqlari» laboratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejalashtirilgan mavzusiga va OʻzR FA matematika instituti F-FA-2021-424 "Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechish" ilmiy grantiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsadi ixtiyoriy tartibli elliptik operator va kasr tartibli hosila qatnashgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalarning yechimlarini mavjudligi va yagonaligini koʻrsatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ixtiyoriy N oʻlchamli sohada aniqlangan va elliptik qismi oʻz-oʻziga qoʻshma, musbat, ixtiyoriy operatordan iborat aralash tipga tegishli boʻlgan tenglama uchun chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

N oʻlchamli sohada aralash tipga tegishli boʻlgan tenglama uchun uning oʻng tomonini aniqlashga nisbatan teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan, hamda umumlashgan yechim qurilgan;

berilgan sohada aniqlangan va elliptik qismi Laplas operatoridan iborat, shuningdek Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli hosilaga ega tenglama uchun toʻgʻri va teskari masalalar yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

elliptik qismi oʻz-oʻziga qoʻshma musbat abstrakt operator boʻlgan va Kaputo manosidagi kasr tartibli hosilaga ega aralash tipga tegishli tenglama uchun toʻgʻri masala va shu tenglama uchun kasr tartibli hosila tartibini aniqlashga nisbatan teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning ob'yekti: Kaputo ma'nosidagi hosilaga ega tenglama, Mittag-Leffler funksiyalari, spektral parametrli tenglamalar, vaqt boʻyicha kasr tartibli tenglamalar, tenglamaning oʻng tomoni yoki hosila tartibini aniqlash boʻyicha teskari masalalar.

Tadqiqotning predmeti: N oʻlchamli sohada oʻz-oʻziga qoʻshma ixtiyoriy elliptik operator va kasr tartibli hosilani oʻz ichiga olgan differensial tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalarni oʻrganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika tenglamalari usullaridan foydalanilgan. Matematik fizika tenglamalari usullaridan oʻzgaruvchilarni ajratish usuli qoʻllaniladi hamda Hilbert fazosida xos funksiyalar sistemasini toʻla ekanligi tadbiq qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ixtiyoriy N oʻlchamli sohada aniqlangan va elliptik qismi oʻz-oʻziga qoʻshma, musbat, ixtiyoriy operatordan iborat aralash tipga tegishli boʻlgan tenglama uchun chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

N oʻlchamli sohada aralash tipga tegishli boʻlgan tenglama uchun uning oʻng tomonini aniqlashga nisbatan teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan, hamda umumlashgan yechim qurilgan;

berilgan sohada aniqlangan va elliptik qismi Laplas operatoridan iborat, shuningdek Kaputo ma’nosidagi kasr tartibli hosilaga ega tenglama uchun to‘g‘ri va teskari masalalar yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

elliptik qismi o‘z-o‘ziga qo‘shma musbat abstrakt operator bo‘lgan va Kaputo manosidagi kasr tartibli hosilaga ega aralash tipga tegishli tenglama uchun to‘g‘ri masala va shu tenglama uchun kasr tartibli hosila tartibini aniqlashga nisbatan teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Tadqiqot ishida kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish uchun to‘g‘ri va teskari masalalar takomillashtirilgan. Shuningdek qo‘llanilgan usullar turli xil fizik-kimyoviy, biologik jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: masalalarning korrekt qo‘yilishi, qat’iy matematik usullarning qo‘llanilganligi, matematik isbotlarning to‘la bajarilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda olingan ilmiy natijalar yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalarini keyinchalik o‘rganishlarda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati fizik-kimyoviy biologik, tibbiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Xususan kasr tartibli xususiy hosilaga ega teskari masalalar koronavirusning tarqalish jarayonini aniqlashga erishishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Ixtiyoriy tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning klassik yechimi mavjudligidan №AAAA-A19-119072290002-9 raqamli «Kamchatkaning tabiiy ofatlari-yer silkinishi va vulqon otilishi» mavzusidagi xorijiy grant loyihasida atmosferadagi radonlari taqsimlanishini tekshirishda foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2023-yil 15-sentabrdagi №18-12-sonli malumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi geofizikaning teskari masalalarni yechish algoritmlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Elliptik qismida o‘z-o‘ziga qo‘shma musbat operator qatnashgan tengamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlarining mavjudligi va yagonaligidan YO‘T-Ftex-2018-149 raqamli «Chiziqsiz chegaraviy shartlar bilan berilgan ikki komponentli muhitlarda fil’trasiya jarayonini matematik modellashtirish» mavzusidagi fundamental loyihada aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 29-sentyabrdagi №04/11-6138 sonli bayonnomasi) ilmiy natijalarning qo‘llanishi Kaputo ma’nosidagi hosilaga ega bo‘lgan differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning klassik yechimini topish, yechimdagi qatorlarning absolyut va tekis yaqinlashishini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 9 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda shulardan 6 tasi xalqaro, 3 tasi Respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan bo’lib, shulardan 8 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun, dissertatsiya himoyasi uchun ko’rsatilgan ilmiy nashriyotlar ro’yxatiga kiritilgan, ulardan 2 ta maqola SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda, 6 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi tuzilishi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 116 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili bo‘yicha umumiy ma’lumot berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ilmiy-tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzulishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur dissertatsiya ishi 2 bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limga birinchi va ikkinchi boblar bag‘ishlangan va u yerda model tenglamalar qaralgan. Shuningdek, bunday tenglamalar uchun qanday masalalar korrekt bo‘lishi o‘rganilgan. Bu yerda tenglamalarning elliptik qismi to‘rtinchi tartibli hosiladan iborat. Lekin, to‘rtinchi tartibli hosila o‘rniga ixtiyoriy musbat elliptik operator yoki o‘z-o‘ziga qo‘shma musbat abstrakt operator qo‘yish mumkin. Chunki, biz masala yechishda Furye usulini qo‘llaymiz. Ma’lumki bu usulda operator ko‘rinishi ahamiyatga ega emas bo’lib, faqat operatorning qaralayotgan fazoda to’la orto-normal xos funksiyalar sistemasiga ega bo‘lishi yetarli.

Dissertatsiyaning ikkinchi bo‘limi yani uchinchi bobida elliptik qismi o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat, ixtiyoriy elliptik A operatoridan va ba’zi masalalarda Laplas operatoridan iborat, aralash tipga tegishli bo‘lgan tenglamalar o‘rganilgan. Ixtiyoriy tartibli musbat elliptik operatorni qaraganda biz M.A.Krasnosel’skiy va boshqalar monografiyasidagi natijadan foydalandik. Lekin bu yerda bir muammo paydo bo’ldi: masala yechimga ega bo‘lishi uchun berilgan funksiyalar operatorning kasr tartibli darajasining aniqlanish sohasiga tegishli bo‘lishi kerak, degan shart kelib chiqdi. Ma’lumki bu shartni amalda tekshirish oson emas. Shu sababli bu paragrafda biz elliptik qismi sifatida R^N fazoda aniqlangan o‘zgarmas koeffisientli bir jinsli elliptik operatorni olamiz. Bu holda elliptik operatorning kasr tartibli darajasi aniqlanish sohasi ma’lum tartibli Sobolev fazosi bilan ustma-ust tushishi ko‘rsatildi. Shu bilan birga tenglamaning elliptik qismi manfiy bo‘lmagan operatordan iborat bo‘lsa, masala yechimi qanday ko‘rinishda bo‘lishi o‘rganildi. Keyingi paragrafda elliptik qismi Laplas operatordan iborat bo‘lgan holda chegaraviy masala qaralgan. Qayd etish kerakki, bu masala avvalgi ko‘rilgan masalalardan farq qiladi. Bu holda yechim mavjudligini ko’rsatishda V.A.Il’inning fundamental natijasidan foydalandik. Ushbu bobning oxirgi paragrafida elliptik qismida ixtiyoriy musbat abstrakt operator ishtirok etgan tenglama uchun to‘g‘ri va teskari masalalar o‘rganilgan.

Yuqoridagi masalalarda kasr tartibli hosila ishtirok etgan tenglama qaraldi va kasr tartibli hosila sifatida Kaputo ma’nosidagi hosila olindi.

Dissertatsiyaning **“To‘rtinchi tartibli spektral parametrga ega tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar**” deb nomlangan birinchi bobida to‘g‘ri to‘rtburchak sohada to‘g‘ri masala va tenglamaning o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalar o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida, asosiy natijalarni olish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar va ba’zi yordamchi formulalar keltirilgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida, $\Omega = \{(x,t) \in R^2 : 0 < x < p, 0 < t < T\}$ to‘g‘ri to‘rtburchak sohada λ spektral parametrga ega

$$\frac{\partial^4 u}{\partial x^4} - \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} - \lambda u = f(x,t) \tag{1}$$

tenglama uchun 2 ta chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi qaralgan. Birinchi masalada (1) tenglamaning quyidagi

$$\frac{\partial^{2k} u}{\partial x^{2k}} = 0 \text{ при } x = 0, x = p, 0 \le t \le T,\ k = 0,1, \tag{2}$$

$$u(x,0) = 0,\ u_t(x,T) = 0,\ 0 \le x \le p \tag{3}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish o‘rganilgan bo‘lsa, ikkinchi masala esa (1) tenglamaning (2) va

$$u_t(x,0) = 0,\ u(x,T) = 0,\ 0 \le x \le p. \tag{3’}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ikkala masala ham o‘z-o‘ziga qo‘shma. Birinchi masala batafsil o‘rganilgan, yani (1)-(3) masala yechimi uchun mavjudlik va yagonalik teoremasi isbotlangan. Ikkinchi masala ham birinchi masalaga o‘xshash o‘rganiladi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida, Ω sohada spektral parametrga ega aralash tipdagi $\frac{\partial^4 u}{\partial x^4} + \operatorname{sgn} t \cdot \frac{\partial u}{\partial t} - \lambda u = f(x,t)$ tenglama uchun (2) chegaraviy va $u_t(x,+0) = u_t(x,-0),\ 0 \le x \le p$ ulash shartlarini qanoatlantirivchi yechimini topish masalasi o‘rganildi.

Ushbu bobning to‘rtinchi paragrafida, Ω sohada spektral parametrga ega aralash tipdagi tenglama uchun tenglamaning o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masala o’rganilgan.

Masalaning qo‘yilishi: $\Omega = \{(x,t) \in R^2 : 0 < x < p, -T < t < T\}$ sohada

$$\frac{\partial^4 u}{\partial x^4}+\operatorname{sgn} t\cdot\frac{\partial u}{\partial t}-\lambda u = f(x) \tag{4}$$

tenglamaning (2) va

$$u(x,-T)=\varphi(x),\ \ u(x,T)=\psi(x),\ 0\le x\le p, \tag{5}$$

chegaraviy shartlarni hamda

$$u_t(x,+0)=u_t(x,-0),\ 0<x<p \tag{6}$$

ulash shartini qanoatlantiruvchi $\left(u(x,t), f(x)\right)$ regulyar yechimi topilsin. Bu yerda $\varphi(x), \psi(x)-$berilgan, yetarlicha silliq funsiyalar. Teskari masalaning regulyar yechimining yagonaligi spektral usul orqali isbotlangan.

1-teorema. Agar $\varphi(x)\in C^5\left(\bar{\Omega}\right),\ \psi(x)\in C^5\left(\bar{\Omega}\right),\ \ \varphi^{(2m)}(0)=\varphi^{(2m)}(p)=0,$ $\psi^{(2m)}(0)=\psi^{(2m)}(p)=0,\ \ m=0,1,2,\ \lambda<0$ yoki $0<\lambda<\frac{1}{2}\left(\frac{\pi}{p}\right)^4$ shartlar bajarilsa, u holda (4), (2), (5), (6) teskari masala yagona yechimga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kichik hadli to‘rtinchi tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalar deb”** deb nomlangan.

Birinchi paragrafda Ω to‘g‘ri to‘rtburchak sohada kichik hadli to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun chegaraviy masala qaralgan.

Berilgan $\Omega=\left\{\left(x,t\right): 0<x<p,\ 0<t<T\right\}$ to‘g‘ri to‘rtburchakda

$$\frac{\partial^4 u}{\partial x^4}-\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}-c(x,t)u(x,t)=0 \tag{7}$$

tenglamani

$$u(0,t)=0,\ \ u(p,t)=0,\ \ \ 0\le t\le T, \tag{8}$$

$$\frac{\partial^{2k} u}{\partial x^{2k}}=0 \text{ при } x=0, x=p, 0\le t\le T,\ k=0,1, \tag{9}$$

shartlar bilan ko‘rib chiqilgan.

Bu yerda $c(x,t)\ f(x,t)-$funksiyalar $\bar{\Omega}$ da berilgan silliq funksiyalar. (7)-(9) masalaning yagonaligi uchun aprior baho olingan.

1-ta’rif. Agar $u\in C^{2,1}_{x,t}\left(\bar{\Omega}\right)\cap C^{4,2}_{x,t}\left(\Omega\right)$ shartlar bajarilib, $u(x,t)$ funksiya (8)-(9) shartlarni qanoatlantirsa, u holda $u(x,t)$funksiya (7)-(9) masalaning regulyar yechimi deyiladi.

2-teorema. Agar $f(x,t),\ c(x,t)\in C^{3.0}_{x,t}\left(\bar{\Omega}\right),\ \frac{\partial^{2k} f(0,t)}{\partial x^{2k}}=\frac{\partial^{2k} f(p,t)}{\partial x^{2k}}=0,$ $\frac{\partial^{2k} c(0,t)}{\partial x^{2k}}=\frac{\partial^{2k} c(p,t)}{\partial x^{2k}}=0,\ \ k=0,1$ bo‘lib, $\frac{\partial^3 f}{\partial x^3}\in Lip_\alpha\left[0,p\right], \frac{\partial^3 c}{\partial x^3}\in Lip_\alpha\left[0,p\right]$ $0<\alpha<1,$ t o‘zgaruvchi bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantirsa, u holda (7)-(9) masalaning regulyar yechimi mavjud.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida, to‘g‘ri to‘rtburchak sohada kichik hadli tenglama uchun chegaraviy masala qaralgan.

Berilgan Ω sohada

$$\frac{\partial^4 u}{\partial x^4}+\frac{\partial u}{\partial t}-c(x,t)u(x,t)=f(x,t) \qquad (10)$$

tenglamaning

$$\frac{\partial^{2k} u}{\partial x^{2k}}=0 \text{ при } x=0, x=p, 0\le t\le T,\ k=0,1, \qquad (11)$$

chegaraviy va

$$u(x,0)=0,\ 0\le x\le p \qquad (12)$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasi o‘rganilgan. Masala yechimining yagonaligi aprior baho olish orqali isbotlangan. Qo‘yilgan (10)-(12) masalaga Fur’ye usulini qo‘llash natijasida

$$u(x,t)=F(x,t)+\int_0^t\int_0^p R(x,t;\xi,\tau)F(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

ko‘rinishida formal yechimni olamiz. Bu yerda

$$R(x,t;\xi,\tau)=\sum_{i=1}^{\infty}K_i(x,t;\xi,\tau),$$

$$K_i(x,t;\xi,\tau)=\int_0^t\int_0^p K_1(x,t;\xi_1,\tau_1)K_{i-1}(\xi_1,\tau_1;\xi,\tau)d\xi_1 d\tau_1.$$

$$K_1(x,t;\xi,\tau)=\sum_{n=1}^{\infty}e^{-\lambda_n^4(t-\tau)}X_n(x)X_n(\xi)c(\xi,\tau).$$

3-teorema. Agar $f(x,t)\in C_{x,t}^{5.0}\left(\bar{\Omega}\right)$, $\frac{\partial^{2k} f(0,t)}{\partial x^{2k}}=\frac{\partial^{2k} f(p,t)}{\partial x^{2k}}=0$, $c(x,t)\in C_{x,t}^{5.0}\left(\bar{\Omega}\right)$, $\frac{\partial^{2k} c(0,t)}{\partial x^{2k}}=\frac{\partial^{2k} c(p,t)}{\partial x^{2k}}=0$, $k=0,1,2$ shartlar bajarilsa, u holda (10)-(12) masalaning regulyar yechimi mavjud.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ixtiyoriy tartibli aralash tipga tegishli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar**” deb nomlangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida, N-o‘lchamli sohada o‘z-o‘ziga qo‘shma musbat aniqlangan, yuqori tartibli elliptik operator qatnashgan tenglama uchun to‘g‘ri masala o‘rganilgan.

Mayli $\Omega\subset R^N$ yetarlicha silliq $\partial\Omega$ chegaraga ega bo‘lgan chegaralangan soha bo’lsin, $A(x,\mathrm{D})=\sum_{|\alpha|\le m}a_\alpha(x)\mathrm{D}^\alpha$ - esa $a_\alpha(x)$ yetarlicha silliq koeffitsientga ega, bunda $\alpha=\left(\alpha_1,\alpha_2,...,\alpha_N\right)-$ mul’tiindeks va $D=\left(D_1,\mathrm{D}_2,...,\mathrm{D}_N\right)$, $D_j=\frac{\partial}{\partial x_j}$ bo‘lgan shuningdek $m=2l$ tartibli musbat aniqlangan o‘z-o‘ziga qo‘shma elliptik differensial operator.

Quyidagi tenglamani

$$A(x,\mathrm{D})\mathrm{u}(x,\mathrm{t})+\mathrm{sgnt}\frac{\partial u}{\partial t}=f(x,\mathrm{t}),\ x\in\Omega, t\in[-L,0)\cup(0,\mathrm{L}],\ L\equiv const>0 \quad (13)$$

$$u_t(x,+0)=u_t(x,-0) \tag{14}$$
ulash sharti va
$$B_j u(\mathrm{x},\mathrm{t})=\sum_{|\alpha|\le m_j} b_{\alpha,j}(\mathrm{x})\mathrm{D}^{\alpha}u(\mathrm{x},\mathrm{t})=0,\quad 0\le m_j\le m-1,\ j=1,2,...,l;\ x\in\partial D. \tag{15}$$
chegaraviy shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda $\mathrm{b}_{\alpha,j}\left(x\right)$ - koeffitsientlar, berilgan funksiyalar.

2-ta'rif. (13)-(15) to‘g‘ri masalaning klasiik yechimi deb, $\overline{\Omega}\times\left[-\mathrm{L},0\right)\cup\left(0,\mathrm{L}\right]$, $\mathrm{L}\equiv const>0$ sohada $u(x,t)$ funktsiya va uning (13) tenglamada qatnashgan barcha tartibdagi hosilalalari uzluksiz bo‘lgan, shuningdek, masalaning barcha shartlarini klassik ma’noda qanoatlantiruvchi $u(x,t)$ funktsiyaga aytamiz.

Masala yechimining yagonaligi spektral usul yordamida isbotlangan.

(13)-(15) masalaning formal yechimini qurish uchun klassik Fur’ye usulidan foydalanildi. Agar masalaga Fur’ye usulini qo‘llasak, quyidagi spektral masalaga kelamiz:
$$\begin{cases} A(x,\mathrm{D})\nu(x)=\lambda\nu\left(x\right), x\in\Omega; \\ B_j\nu(x)=0,\ j=1,2,...,l;\ \ x\in\partial D. \end{cases} \tag{16}$$

S. Agmon ishida teskari operatorning kompaktligini, ya’ni Ω sohaning $\partial\Omega$ chegarasi hamda A va B_j operatorlarning koeffitsiyentlari uchun (16) spektral masala $L_2(\Omega)$ da $\{v_k(x)\}$, $k\ge 1$ xos funksiyalar ortonormal to‘la sistemasi va manfiy bo‘lmagan λ_k xos qiymatlar to‘plamiga ega bo‘lishini kafolatlovchi zaruriy shartlarni topdi. Bundan keyin biz ushbu shartlar bajarilgan deb faraz qilamiz.

(13)-(15) masala yechimi uchun mavjudlik teoremasini keltirishdan oldin quyidagi ayrim ta’riflarni keltiramiz.

Ixtiyoriy haqiqiy τ soni uchun $L_2(\Omega)$ fazoda
$$\hat{A}^{\tau}g(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^{\tau}g_k v_k(x),\ g_k=(\mathrm{g},v_k)$$
qoida bo‘yicha ta’sir qiluvchi $\hat{A}^{\tau}$ operatorni kiritamiz. Oson ko‘rish mumkinki
$$D\left(\hat{A}^{\tau}\right)=\left\{g\in L_2\left(\Omega\right):\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^{2\tau}\left|g_k\right|^2<\infty\right\}$$
aniqlanish sohaga ega bo’lgan $\hat{A}^{\tau}$ operator o‘z-o‘ziga qo‘shma.

Agar A orqali $L_2\left(\Omega\right)$ fazoda quyidagi aniqlanish sohaga $D(A)=\left\{g\in C^m(\overline{\Omega}):\mathrm{B}_j\,g(x)=0,\ j=1,...,l,\ x\in\partial D\right\}$ ega va $Ag(x)=A(x,D)g(x)$ qoida orqali ta’sir qiluvchi operatorni belgilasak, u holda $\hat{A}=\hat{A}^1$ operator $L_2\left(\Omega\right)$ fazoda A operatorning o‘z-o‘ziga qo‘shma kengaytmasi bo‘ladi.

4-teorema. Aytaylik $\sigma>\dfrac{N}{2m}$ va $f(x,t)\in D(\hat{\mathrm{A}}^{\sigma})$ bo’lib,

$$F(t)=\left\|\hat{A}^{\sigma} f(x,t)\right\|_{L_2(\Omega)}$$

funksiya $[0,T]$ kesmada uzluksiz bo‘lsin. U holda (13)-(15) masalaning klassik yechimi mavjud va u quyidagi ko‘rinishga ega:

$$u(x,\mathrm{t})=\begin{cases}\sum\limits_{k=1}^{\infty}\left(\dfrac{v_k(x)}{\lambda_k} f_k(0)\mathrm{e}^{-\lambda_k t}+v_k(x)\int\limits_0^t f_k(\tau)e^{-\lambda_k(t-\tau)}d\tau\right),\ t>0,\\ \sum\limits_{k=1}^{\infty}\left(\dfrac{v_k(x)}{\lambda_k} f_k(0)\mathrm{e}^{\lambda_k t}+v_k(x)\int\limits_t^0 f_k(\tau)e^{-\lambda_k(\tau-t)}d\tau\right),\ t<0.\end{cases}$$

Bu yerda $f_k(\mathrm{t})$- $f(x,t)$ funksiyaning Furye koeffitsient va $\{v_k(x)\}$ xos funksiyalar sistemasi bo‘yicha $L_2(\Omega)$ fazoda aniqlangan skalyar ko‘paytma.

Masala yechimining mavjudligini isbotlashda Krasnoselskiy va boshqalarning quyidagi lemmasi muhim rol o‘ynaydi.

1-lemma. Aytaylik, $\tau>\dfrac{|\alpha|}{m}+\dfrac{N}{2m}$ bo‘lsin. U holda ixtiyoriy $|\alpha|\le m$ lar uchun $D^{\alpha}\hat{A}^{-\tau}$ operator $L_2(\Omega)$ ni $C(\overline{\Omega})$ ga uzluksiz akslantiradi va quyidagi baholash o‘rinli bo‘ladi:

$$\| D^{\alpha}\hat{A}^{-\tau} g\|_{C(\Omega)}\le C\| g\|_{L_2(\Omega)}.$$

Endi (13)-(15) masalani elliptik qismi nomanfiy elliptik operatordan iborat bo‘lgan holda T^N to‘rda qaraymiz.

Aytaylik $A(\mathrm{D})=\sum\limits_{|\alpha|=m} a_{\alpha}D^{\alpha}$ –o‘zgarmas koeffitsientli, simmetrik elliptik differensial ifoda bo‘lsin. Quyidagi masalani qaraymiz:

$$A(\mathrm{D})\mathrm{u(x,t)}+\mathrm{sgnt}\frac{\partial u}{\partial t}=f(x,\mathrm{t}),x\in T^N,t\in[-L,0)\cup(0,\mathrm{L}],L\equiv const>0; \quad (17)$$

$$u(x,+0)=u(x,-0),\ u_t(x,+0)=u_t(x,-0),\ \ x\in T^N. \quad (18)$$

(15) ko‘rinishdagi chegaraviy shart o‘rniga $u(x,t)$ funksiya har bir x_j o‘zgaruvchi bo‘yicha $2\pi-$ davriy bo‘lsin deb faraz qilamiz.

$C^m(R^N)$ fazodan olingan 2π-davriy funksiyalarda aniqlangan $A(D)$ operatorni A orqali belgilaymiz. Bu operatorning $L_2(T^N)$ fazodagi yopilmasi $\hat{A}_T$ o‘z-o‘ziga qo‘shma va u to’la orto normalangan $\{(2\pi)^{-\frac{N}{2}}e^{inx}\}$ xos funksiyalar sistemasiga, $A(n), n\in Z^N$ xos sonlarga ega. Fon-Neymanning spektral teoremasiga ko‘ra $\tau\ge 0$ bo‘lgan holda $\hat{A}^{\tau}$ operator $\hat{A}^{\tau}g(x)=\sum_{n\in Z^N}A^{\tau}(n)g_n e^{inx}$ qoida bo‘yicha ta’sir qiladi. Bu yerda g_n - Furye koeffeitsient. Bu operatorning aniqlanish sohasi $\hat{A}^{\tau}g(x)\in L_2(T^N)$ shartdan kelib chiqib, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$D(\hat{A}^{\tau})=\left\{g\in L_2(T^N):\sum_{n\in Z^N}A^{2\tau}(n)\left|g_n\right|^2<\infty\right\}. \quad (3.2.34)$$

Agar $g \in L_2(T^N)$ sinfdan olingan funksiyalar uchun quyidagi norma

$$\|g\|^2_{L_2^a(T^N)} = \left\| \sum_{n\in Z^N} (1+|n|^2)^{\frac{a}{2}} g_n e^{inx} \right\|^2_{L_2(T^N)} = \sum_{n\in Z^N} (1+|n|^2)^a g_n^2.$$

biror $a > 0$ haqiyiqiy son uchun chekli bo‘lsa, u holda bu sinf Liuvill sinfi $L_2^a(T^N)$ deb ataladi. a butun so‘n bo‘lmagan hollari uchun bu fazo Liuvill fazosi deyiladi. Ta’kidlash joizki T^N torda $A(D)$ operator manfiy emas, yani birinchi xos son nolga teng bo‘lishi mumkin.

5-teorema. Aytaylik $a > \dfrac{N}{2m}$ va $f(x,t) \in L_2^a(T^N)$ bo‘lib,

$$F(t) = \| f(x,t)\|_{L_2^a(T^N)}$$

funksiya $[0,T]$ kesmada uzluksiz bo‘lsin. U holda (17)-(18) masalaning yechimi mavjuv va u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$u(x,\mathrm{t}) = \begin{cases} c_0 + \sum\limits_{n\neq 0} \dfrac{e^{inx}}{A(\mathrm{n})} f_n(0) \mathrm{e}^{-A(i\,\mathrm{n})t} + \sum\limits_{n\in Z^N} e^{inx} \int\limits_0^t f_n(\tau) e^{-A(i\,\mathrm{n})(t-\tau)} d\tau, \ t > 0, \\ c_0 + \sum\limits_{n\neq 0} \dfrac{e^{inx}}{A(\mathrm{n})} f_n(0) \mathrm{e}^{A(i\,\mathrm{n})t} + \sum\limits_{n\in Z^N} e^{inx} \int\limits_t^0 f_n(\tau) e^{-A(i\,\mathrm{n})(\tau-t)} d\tau, \quad t < 0, \end{cases}$$

va bu qator $x \in T^N$ da har bir $t \in [-\mathrm{L},\mathrm{L}]$ uchun absolyut va tekis yaqinlashuvchi bo’ladi. Bu yerda c_0 $-$ixtiyoriy o‘zgarmas son.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida, N o‘lchamli sohada ixtiyoriy tartibli aralash tipdagi tenglama uchun teskari masala o‘rganilgan.

$\Omega \subset R^N$ sohada

$$A(x,D)u(x,t) + sgnt\frac{\partial u}{\partial t} = f(x,t), x \in \Omega, t \in (-T_1,T_2), \tag{19}$$

aralash tipdagi tenglamani

$$u(x,+0) = u(x,-0),\ u_t(x,+0) = u_t(x,-0),\ x \in \Omega, \tag{20}$$

ulash shartlari

$$B_j u(x,t) = \sum_{|\alpha|\le m_j} b_{\alpha,j}(x) D^\alpha u(x,t) = 0,\ 0 \le m_j \le m-1,\ j = 1,2,...,l;\ x \in \partial\Omega, \tag{21}$$

$$u(x,T_2) = \psi(x), x \in \Omega \tag{22}$$

chegaraviy shartlar va

$$u(x,-T_1) = \varphi(x), x \in \Omega, \tag{23}$$

boshlang‘ich shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda $b_{\alpha,j}(x), \varphi(x)$ $-$berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

6-teorema. Aytaylik $\tau > 1 + \dfrac{N}{2m}$ va $\varphi(x), \psi(x) \in D(\hat{A}^\tau)$ bo‘lsin. U holda (19)-(23) teskari masala yagona $\{u(x,t), f(x,t)\}$ yechimga ega va bu yehim quyidagi ko’rinishga ega

$$u(x,t)=\begin{cases}\sum_{n=1}^{\infty}\dfrac{(\psi_n-\varphi_n)e^{\lambda_n(T_2-t)}+\psi_n e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2\psi_n e^{\lambda_n T_2}+\varphi_n}{1+e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2e^{\lambda_n T_2}}v_n(x), & t>0,\\ \sum_{n=1}^{\infty}\dfrac{(\varphi_n-\psi_n)e^{\lambda_n(T_2+t)}+\psi_n e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2\varphi_n e^{\lambda_n T_2}+\varphi_n}{1+e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2e^{\lambda_n T_2}}v_n(x), & t<0,\end{cases}$$

$$f(x,t)=\begin{cases}\sum_{n=1}^{\infty}\dfrac{\varphi_n+\psi_n e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2\psi_n e^{\lambda_n T_2}}{1+e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2e^{\lambda_n T_2}}\lambda_n v_n(x), & t>0,\\ \sum_{n=1}^{\infty}\dfrac{\varphi_n+\psi_n e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2\varphi_n e^{\lambda_n T}}{1+e^{\lambda_n(T_2-T_1)}-2e^{\lambda_n T_2}}\lambda_n v_n(x), & t<0.\end{cases}$$

Shuningdek, bu bobda (19)-(23) teskari masalaning umumlashgan yechimining mavjudligi haqidagi teorema ham isbotlangan.

7-teorema. Aytaylik $\varphi,\psi\in D(\hat{A}^1)$. U holda (19)-(23) teskari masalaning $(u(x,t),\ f(x,t))$ umumlashgan yechimi mavjud bo‘lib, quyidagi baholar o‘rinli:

$$\|A(x,D)u(x,t\|_{L_2(\Omega)}\le C\left(\|\varphi\|_1+\|\psi\|_1\right);$$

$$\|f\|_{L_2(\Omega)}\le C\left(\|\varphi\|_1+\|\psi\|_1\right);$$

$$\left\|\frac{\partial u}{\partial t}\right\|_{L_2(\Omega)}\le C\left(\|\varphi\|_1+\|\psi\|_1\right).$$

(19)-(23) teskari masala, tenglamaning elliptik qismida manfiy bo‘lmagan operator ishtirok etgan holda (17)-(18) masalaga o‘xshash o‘rganilgan.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida, Elliptik qismi Laplas operatoridan iborat va Kaputo ma’nosidagi hosilaga ega, aralash tipga tegishli bo‘lgan tenglama uchun to‘g‘ri masala va tenglamaning o‘ng tomonini aniqlashga nisbatab teskari masala o‘rganilgan. Qo‘yilgan masalalarning yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Aytaylik, $h(t)$ funksiya $[0,\infty)$ da aniqlangan bo‘lsin. Agar

$$D_t^{\alpha}h(t)=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t\frac{h'(\xi)}{(t-\xi)^{\alpha}}d\xi,\quad t>0$$

tenglikning o‘ng tomonidagi integral chekli bo‘lsa, u holda ushbu integralga $h(t)$ funksiyaning α kasr tartibli Kaputo ma’nosidagi hosilasi deyiladi, bunda $\Gamma(\alpha)$ Eylerning gamma funksiyasi va $0<\alpha<1$. Aralash tipga ega

